

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883635>

## TAFAKKUR – INSON FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY SHARTI

**Baybulatov Nurjan Saken o‘g‘li**

Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Ulmesova Aida Alibek qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti

Ona tili va adabiyot: qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi

22-23-guruh talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada til va nutq o‘zaro aloqadorligi, til mavhum ekanligi, nutqning esa konkret ekanligi haqida, shu bilan bir qatorda, nutqning tafakkur mahsuli ekanligi, tafakkurning inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti ekanligi borasida nazariy fikrlar bayyon qilinadi.*

*Kalit so‘zlar: til va nutq, individual nutq, nutq psixologiyasi, nutq akustikasi, nutq tovushlari, tafakkur, tafakkur vositasi, nutq aloqasi, nutqiy tafakkur, muloqot, mantiqiy jarayon.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье излагаются теоретические соображения о взаимосвязи языка и речи, о том, что язык абстрактен, а речь конкретна, а также о том, что речь является продуктом мышления, что мышление является основным условием осуществления человеческой деятельности.*

***Ключевые слова:** язык и речь, индивидуальная речь, психология речи, речевая акустика, звуки речи, мышление, средство мышления, речевое общение, речевое мышление, общение, логический процесс.*

## ANNOTATION

*In this article, theoretical considerations are made about the interrelationship of language and speech, the fact that language is abstract, and speech is concrete, as well as the fact that speech is a product of thought, that thinking is the main condition for the implementation of human activities.*

**Keywords:** language and speech, individual speech, speech psychology, Speech Acoustics, Speech Sounds, thinking, thinking tool, Speech Communication, Speech thinking, communication, logical process.

**KIRISH.** Til va nutq o‘zaro aloqador, bir-biri bilan bog‘liq, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydigan, ammo bir-biridan farqi bo‘lgan ijtimoiy hodisalardir. Demak, til va nutq o‘zaro bog‘liq bo‘lgani bilan aynan bir xil narsa emas. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, obyektiv vogelikning ongda aks etish jarayoni, atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, vogelikni bilish quroli hamda inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi [6].

**NATIJALAR.** Xar bir kishining o‘z nutqi bor. U o‘z nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapurishi mumkin. Shu bilan birgalikda, har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma’naviy-madaniy saviyasiga qarab, o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘ladi. Bundan esa nutqning individual hodisa ekanligi kelib chiqadi. Til ham, nutq ham ijtimoiy hodisa. Gap shundaki, nutq haqiqatan ham individual bo‘lganligi sababli, o‘zining bajarilishiga, sodir bo‘lishiga ko‘ra, ya’ni u individ, alohida kishi tomonidan amalga oshadi, ammo o‘zining vazifasiga ko‘ra esa nutq ijtimoiyidir. Demakki, nutq – individual deganda, uning individ alohida shaxs tomonidan amalga oshirilishi, bajarilishi ko‘zda tutilsa, nutq – ijtimoiy deganda, uning ahamiyati, vazifasi, ommaviyligi tushuniladi.

**ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tilni ham ma’lum ma’noda individual deyish mumkin, chunki til materiali psixikada, xotiramizda mavjud. Shuning uchun ham S.Usmonov: –Til elementlari jamiyat a’zolarining xotirasida... mavjud,— deydi [3; 732-735], demak, til individual

nutq shaklida faoliyat ko‘rsatadi. Til va nutq ham ijtimoiy, ham individuadir. Tildagi ijtimoiylik nutq orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni tildagi ijtimoiylik yashirin, ichki hodisa bo‘lsa, nutqdagi ijtimoiylik tashqi, real hodisadir.

Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya’ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va matnda ko‘ramiz. Nutq doimo aniq bo‘lib, muayyan o‘rinda (joyda) va muayyan vaqtida yuz beradi. Nutq so‘zlovchining, tinglovchining va predmetning – fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo‘lishini talab qiladi [2; 982-990].

Nutq psixologiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri nutqning akustik tomonini o‘rganishdir. Nutq akustikasi fizik – akustika, lingvistik – fonetika, kibernetik va boshqa tomonidan ham o‘rganiladi. Psixolog uchun nutq tovushlari – gapirayotgan kishi artikulyar apparatining faoliyati natijasidir. Bu faoliyat doimo eshitish analizatorining nazoratida bo‘ladi va inoson miyasining maxsus bo‘limlari, motor buyruqlari bilan boshqariladi [ 4 ].

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odatda nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi. Shuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning spesifik shakllari deb ataladi.

**MUHOKAMA.** Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, demak obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo‘l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurga nisbatan chuqurroq va to‘laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz. Mumkin bo‘lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi, uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr,

mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi hamda ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi, fikrlash faoliyati esa nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o‘zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi. Hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqeа va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega [ 6 ].

Insonning hayvonot olamidan farq qiluvchi, uning fiziologik, psixik va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi asosiy xususiyatlardan biri nutq deb ataluvchi alohida psixik jarayonning mavjudligi hisoblanadi. Nutq – bu odamlarning til vositasida muloqot qilishi. Gapira olish va begona tilni tushunish malakasiga ega bo‘lish uchun tilni bilish va undan foydalana olish zarur. Til va nutqning psixologik rivojlanish yo‘lida tutgan o‘rni beqiyosdir. Nutqning paydo bo‘lishi bilan birga insonning psixologik va ruhiy doirasi ham rivojlnana boshlaydi. Masalan, qabul qilish, xotira, tafakkur, tasavvur, e’tibor kabilar faqatgina til tufayli rivojlnana boradi.

Nutq – inson psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, boshqa psixologik jarayonlarni boshqarib, bir biriga boq‘lab turadi. Inson onggidagi tafakkur va tasavvur qilish jarayonlari nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson fikrlash faoliyati – nutqiy tafakkurni paydo qiladi. Nutqning rivojlanishi boshqa psixologik jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Nutq o‘z navbatida tashqi, ichki, og‘zaki, yozma dialog va monolog ko‘rinishlarida

bo‘ladi. Nutq o‘zaro munosabat va muloqotda eng asosiy qurol hisoblanadi. Muloqot – bu odamlar o‘rtasidagi aloqa, buning natijasida odamlarning bir biriga bo‘lgan ta’siri paydo bo‘ladi. Muloqot davomida odamga nisbatan extiyoj tug‘iladi. Muloqot tufayli odamlar turli xil amaliy va nazariy faoliyatlarni uyushtiradi. Bundan tashqari axborot almashish, bir-birini tushinish kabi jarayonlar ham muloqot tufayli sodir bo‘ladi. Shuningdek, muloqot shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni yaratib, ularni amalda qo‘llashdayordam beradi [ 5 ].

Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tildagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi, voqelikni analizatorga bevosita ta’sir ko‘rsatmay, ko‘pchilik hollarda asboblar ko‘magida olingan qo‘sishimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi vositali tarzda aks ettirishdir. Hodisalarining qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarining tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo‘lishi bilan inson ichki, barqaror o‘zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi. Tafakkurning alohida muhim o‘ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzlucksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo‘lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Biz doimo so‘zlar orqali fikr yuritamiz. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo‘lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo‘lib hisoblanadi. Nutq tafakkur quolidir, ya’ni ma’lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so‘z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomonidan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo‘lgan murakkab jarayon.

**XULOSA.** Demak, tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g‘oyalari harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma’lum bir fikrdir. Tafakkur – bu kiritilgan yo‘nalishli – tadqiqiy, qayta o‘zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo‘lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abulxayeva M.U. Til va nutq haqida olimlarning fikri. Экономика и социум. – №5(120)-1. 2024. –B. 32-35.
2. Mirzayeva N.S. Til va nutq tushunchasi. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 doi: 10.24412/2181-1385-2022-3-982-990 SJIF: 5,7 | Uif: 6,1. March, 2022 [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz) Multidisciplinary Scientific Journal. –B. 982–990.
3. Tursunov A.R. O‘zbek tilshunosligida so‘zyasalishining sinxronik, diaxroniya usullari. “Экономика и социум” –№ 2(117)-1 2024. – B. 732-735. <file:///C:/Users/user/Downloads/o-zbek-tilshunosligida-so-zyasalishining-sinxronik-diaxroniya-usullari.pdf>.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/psixologiya/nutqni-eksperimental-psixologik-o-rganishning-rivojlanishi>.
5. <https://azkurs.org/mavzu-muloqot-haqida-tushuncha-v2.html?page=4>.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur>.